ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

O‘zbek xalq qadimiy teatrida ijrochilik san’ati.

O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi huzuridagi
Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti
Professional ta’lim: Vokal san’ati (estrada xonandaligi)
2-bosqich talabasi **Shavkatov Sardor Xurshid o‘g‘li**

Annotatsiya: O’zbek xalq qadimiy teatrida ijrochilik san’ati shakllanishi va yuksaklikka intilishida jonbozlik ko‘rsatgan ma’rifatparvar ziyolilarning sa’y-harakati tufayli o‘zbek teatri Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib boshqalarga na’muna sifatida nom qozondi, uning muvaffaqiyati qisqa vaqt ichida keng ommaga, qo‘shni davlatlarga tarqaldi, qardosh xalqlarning qalbiga olov tashladi, havas uyg‘otdi, shakli shamoyilini o‘rganish, ba’zida shundayligicha ko‘chirish orqali kelajakda o‘zinikini yaratishga bo‘lgan xoxish uyg‘otganining o‘ziyoq ushbu teatrning bunyodkorlik kuchidan darak berdi.

Ключевые слова: театр, Туркестан, цирк, музыка, танец, клоун, артист, гастроли, игры, сатирик, комедия, имитатор, сцена, шут, маска, костюм, поведение, смех, герой, характер, персонаж, грим, художник, реквизит, традиционный, актер, режиссер, профессиональный, пресыщенный, драма, драматургия, цензура, труппа, исполнитель, любитель, образование, студия, М. Уйгур, Бехбудий, Чолпон, К. С. Станиславский, Е. Б. Вахтангов, Хамза, Авлоний, инициатива, лидер, Баку, Москва, Бухара, Ташкент, биомеханика, ученик, учитель, талант, зрители, Туран.

Keywords: theater, Turkestan, circus, music, dance, clown, entertainer, tour, games, satirist, comedy, imitator, stage, clown, mask, costume, behavior, laughter, hero, character, personage, make-up, artist, prop, traditional, actor, director, professional, jaded, drama, dramaturgy, censorship, troupe, performer, amateur, education, studio, M. Uygur, Behbudiy, Cholpon, K.S. Stanislavsky, Y.B. Vakhtangov, Hamza, Avloniy, initiative, leader, Baku, Moscow, Bukhara, Tashkent, biomechanics, student, teacher, talent, audience, Turan.

Kalit so’zlar: tarixiy, senariy, dramaturg, shart-sharoit, butafor, pedagog, rassom, teatr, libos, ijod, tovush, chiroq, dekaratsiya, san’at, professional, tasavvur, spektakl, timsol, zamonaviy, ashula, musiqa, raqs, sinkret, jest, pantomime, marionetka, qo‘girchoq, plastika, neverbal, maska, delarte, garmonik, kompazitsiya, tomosha, an’ana, mumtoz, sahna, sistema, maktab, aktyor, rejissyor.

Ключевые слова: исторический, сценарий, драматург, условия, реквизит, педагог, художник, театр, костюм, творчество, звук, освещение, декорации, искусство, профессиональный, воображение, представление, символ, современный, песня, музыка, танец, синкрет, жест, пантомима, марионетка, кукла, пластика, невербальный, маска, Деларте, гармонический, композиция, зрелище, традиция, классика, сцена, система, школа, актер, режиссер.

Keywords: historical, scenario, playwright, conditions, props, teacher, artist, theater, costume, creativity, sound, lighting, decoration, art, professional, imagination, performance, symbol, modern, song, music, dance, syncret, gesture, pantomime, marionette, puppet, plastic, nonverbal, mask, delarte, harmonic, composition, spectacle, tradition, classic, stage, system, school, actor, director.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

O’zbek xalq qadimiy teatrida ijrochilik san’ati. Bu yerda hal etuvchi – ijrochi aktyor, uning e’tiqodi, qobiliyati, malakasi, mahoratidir. Zotan, xalq aktyori tomoshabinlar davrasidan hosil bo‘lgan o‘ziga xos «sahna»da, maxsus ayvonlarda, ko‘shklarda tomosha ko‘rsatgan. Rasmana dekoratsiya yo‘q, voqea o‘rni va payti esa shartli. Bunday sharoitda aktyor faqat o‘ziga, o‘z san’atiga ishonib ish ko‘radi. U mustahkam an’anaviy fabula, voqealar, obrazlar sil-silasi, barqaror savol-javoblarga tayangan holda so‘z va harakatlar to‘qiydi, ya’ni badihago‘ylik (improvizatsiya) qiladi. Tomoshabinlar u yoki bu tomoshani, sahnani ko‘rish uchun emas, balki ma’lum masxarani, qiziqchini, qo‘g‘irchoqbozni ko‘rish uchun yig‘iladi. Negaki, tomoshabin ijro etilishi mumkin bo‘lgan xalq komediyalarining ko‘pini oldindan bilgan, shu bois unga kim ijro etishi va qanday ijro etishi muhim edi. Binobarin, aktyor chinakam mahorat namoyish etishi, mahalliy sharoit va tomoshabinlar tarkibidan kelib chiqib, topag‘onlik ko‘rsatishi, an’anaviy syujet, ko‘rinish va obrazlar talqiniga o‘zgartirishlar kiritishi, shevalardan, askiya, qo‘shiq, usul, raqs vositalaridan foydalanishi zarur bo‘lgan. Natijada, tomoshabin ham spektakl ishtirokchisiga aylangan.

Tomoshaviylik, qiziqarlilik an’anaviy teatrning yetakchi badiiy xususiyatidir. Ijtimoiy mavzu, jiddiy fikr ham kulgu, masxara, mubolag‘a yo‘li bilan tomoshabinga yetkazilgan. Umumiy kulgu, qah-qaha tomoshabinlarni hayotdagi fojea va kulfatlarni vaqtincha unutish, hokimiyat va oxirat azoblari oldidagi qo‘rquvni yengib, fikr erkinligiga erishishga olib kelgan. Kuldirish maqsadida xalq aktyorlari ko‘pincha tentak qiyofasida gavdalanganlar. Ammo bu tentaklik, afandinamolik xalq san’atida donolikning teskari ko‘rinishiday talqin etilgan. M.Baxtin so‘zlari bilan aytganda, «Tentaklik rasmiy dunyoning har qanday «normalari» va qisuvlaridan, shuningdek, uning tashvishlari va jiddiyatlaridan xoli bo‘lgan erkin bayramona donolikdir». Darhaqiqat, aktyor o‘zini tentak qilib ko‘rsatishi bilan ichki erkinlikka ega bo‘lib oladi rasmiy tartib, qonun-qoidalarni go‘yo tushunmagan bo‘lib, ularning astarini ochib tashlaydi. Shu zayil xunuklik va tubanlik ko‘rinishlarini aks ettirar ekanlar, xalq aktyorlari tomoshabinlarga ideal «sahna»da ko‘rsatilayotgan voqealar va kishilarning tamom teskarisi, demoqchi bo‘ladilar.

An’anaviy teatr tomoshalarida ba’zan turli vositalar uyg‘unlashadi (sintez). Qo‘g‘irchoqbozlarning cholg‘u kuylari, qo‘shiqlari va usullar bilan yo‘g‘rilgan o‘ziga xos musiqali komediyalari bunga misol bo‘lishi mumkin. Chunki ularda turli san’at vositalari bir-biriga shu qadar bog‘lanib, chatishib ketadiki, natija-da yangi bir yaxlit badiiy asar maydonga keladi. Masxaraboz va qiziqchilar san’atida ham bunday tomoshalar oz emas. Ammo ularning faoliyatlarida so‘z, musiqa, raqs, sirk unsurlari yonma-yon keluvchi tomoshalar ham ko‘p uchraganki, bu sinkretiklikdir. Sinkretiklik ba’zan qoloqlik nishonasi sifatida talqin etiladiki, bunga qo‘shilish qiyin. «Bu badiiy-obrazli idrokning o‘ziga xos sinkretikligi idrokning rivojlanmaganligi bilan emas, deb yozadi V.Ye.Gusev, balki badiiy idrok predmetining tabiati bilan belgilanadi, ya’ni xalq ommasi o‘z san’ati yig‘indisi bilan, estetik tabiatining butun qirralari va murakkabligi bilan birga estetik bir butun, yaxlit tasavvur qiladi». Ha, sinkretiklik masxaraboz va qiziqchilar teatrining asosiy estetik xususiyatlaridan biridir. Sintez ularning eng mukammal tomoshalaridagina maydonga kelgan bo‘lib, aktyor mahorati, an’anaviy teatr taraqqiyotining belgisi sifatida qaralishi mumkin.

An’anaviy teatr asosini tashkil etuvchi og‘zaki dramaturgiya hayotiy voqelikni kulgili shakllarda aks ettiradi. U asosan hajmi turlicha bo‘lgan nasriy komediyalar va kulgili hikoyalardan iborat bo‘lib, mavzularga boy, vositalari va shakllariga ko‘ra xilma-xildir. Eng muhimi, mazkur

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

tomoshalar o‘tmishda xalq ideallarini, orzu-intilishlarini ifoda etgan holda jamiyat va inson hayotidagi nuqsonlarni ayovsiz fosh qilgan, yomon odatlar, fe’l-atvordagi qusurlar ustidan qah-qah urib kulgan. Ya’ni xalqning madaniy-estetik hayotida zarur va foydali rol o‘ynagan.

Og‘zaki dramaturgiyada erkak qiziqchi va masxarabozlar tomonidan yaratilgan tomoshalar asosiy o‘rinni egallaydi. Qo‘g‘irchoqbozlarning o‘ziga xos tragikomedik tomoshalari alohida bir bo‘limni tashkil qiladi. Shular qatorida ayollar tomonidan yaratilgan komediya va kulki-hikoyalar ham bo‘lgan.

Erkak masxaraboz va qiziqchilarning og‘zaki dramaturgiyasi mavzularga boyligi, ijtimoiy hajviyasi, badiiy rang-barangligi bilan e’tiborlidir. Unda to‘y va mehmonxonalarda, katta ma’rakalarda ko‘rsatishga mo‘ljallangan muqallid, tanqid, kulki-hikoya (Xorazmda «to‘kma» deyilgan), maqtov (monolog) degan janrlarning hamda «Mayda qiziqlik» («Mayda masxarabozlik»), «Katta qiziqlik» («Katta masxarabozlik», Xorazmda «Xatarli o‘yin» deb atalgan) nomli turkumlarning vujudga kelganligi shundan guvohlik beradi.

Masxaraboz va qiziqchilarning keng tanilgan janrlaridan biri muqalliddir. Avvalo shuni aytish kerakki, «taqlid» va «muqallid» so‘zlari bir o‘zakdan hosil bo‘lib, biron kishi yoki mavjudot xatti-harakatini kulgili qilib ko‘chirish va ko‘chiruvchi, ya’ni ijrochi ma’nolarini anglatadi. Ammo xalq aktyorlari «taqlid» so‘zini juda kam ishlatadilar, «muqallid» so‘zini esa ham predmetning o‘zi (ya’ni ko‘chirish, o‘xshatish, ergashish), ham ijrochi ma’nolarini ifoda qilishda qo‘llaydilar. Garchi grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lmasada, xalq atamasini qoldirish lozim topildi.

Muqallid bu konkret shaxs, biron bir kulgili voqeaga, qush va hayvonlarning tovushi, xatti-harakatlariga qilingan taqlidning aniq bir g‘oya va maqsad asosida, tugallangan tomosha shaklida namoyish qilinishidir. Tekshiruvlar uch xil muqallid bo‘lganini ko‘rsatadi qush va hayvonlar dunyosini yorituvchi pantomimalar, mehnat va turmushdagi ba’zi ko‘rinishlar va holatlar parodiyasi, bangi, o‘g‘ri, sudxo‘r, qimorboz kabi unsurlarning hajvi. Ko‘p hollarda muqallid hajviy tus olib, tanqid darajasiga yetadi. Ya’ni taqlid qilingan aniq shaxs, voqea bora-bora unutilib, ijrochilarning turmush tajribasi va mahorati tufayli tomoshaning umumlashma quvvati oshadi, tipiklashadi, syujet va ma’no doirasi kengayadi, hajvi o‘tkirlashadi.

«Yumronqoziq», «Chag‘alloq», «Ayiq», «Toshbaqa», «Kiyik o‘yin», «To‘rg‘ay», «G‘oz», «Bedana o‘yin» singari bir qator muqallidlarda qush va hayvonlar dunyosi, ularning xatti-harakatlari, tovushlari, o‘zaro va inson bilan munosabatlari tasvirlanadi. Bunda kulgi inson (masxaraboz, qiziqchi) ning o‘z a’zolari vositasida yoki hayvon qiyofasi, yurish-turishi, qilig‘ini gavdalantirishi, tovushini imitatsiya qilishidan kelib chiqadi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, qush va hayvonlar dunyosini yorituvchi pantomimalar ham ko‘p hollarda kishilarning real hayotiy tiplariga ishora qilgan. Bu xususiyat, ayniqsa, usta masxaraboz va qiziqchilar ijrosida yaqqol namoyon bo‘lgan.

Parodiya tipidagi muqallidlar masxaraboz va qiziqchilar repertuarida katta o‘rin egallagan. «Bo‘z do‘koni», «Juvozkash», «Kelin tushirdi», «Uloqchilik», «Tegirmon», «Sartaroshlik», «Tandir», «Cho‘pon», «Mergan», «Yog‘och polvon», «Dorbozlik», «Bo‘zchilik» kabi o‘nlab tomoshalar ana shunday muqallidlar sirasidandir. Ularda kosib-hunarmandlar, dehqonlar mehnati va turmushidagi ayrim jarayonlar, ba’zi marosim va tomoshalar ermak qilinadi, xatti-harakatlar va qiliqlar hajv etiladi. Buyumlar, dastgohlar jonlantiriladi. Mazkur tomoshalarda voqea bilan

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

qahramon, qahramon bilan asbob-buyum o‘rtasidagi to‘qnashuv asosan ijrochining turli mazmundagi sahnaviy harakatlari negizida ochib beriladi.

Misol tariqasida «Bo‘z do‘koni» muqallidini ko‘rsatishimiz mumkin. Qishloqma-qishloq yurib ishlovchi bo‘z to‘quvchi to‘y taraddudida bo‘lgan bir kishiga duch keladi: ma’lum bay evaziga to‘ychining do‘konida unga bo‘z to‘qib berishga rozi bo‘ladi. «Do‘kon»ning u yoq-bu yog‘ini ko‘rib, uni xarobga chiqaradi. Keyin to‘ychining iltimosi bilan uni «sinab» ko‘radi.

O’zbek xalq qadimiy teatrida ijrochilik san’ati shakllanishi va yuksaklikka intilishida jonbozlik ko‘rsatgan ma’rifatparvar ziyolilarning sa’y-harakati tufayli o‘zbek teatri Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib boshqalarga na’muna sifatida nom qozondi, uning muvaffaqiyati qisqa vaqt ichida keng ommaga, qo‘shni davlatlarga tarqaldi, qardosh xalqlarning qalbiga olov tashladi, havas uyg‘otdi, shakli shamoyilini o‘rganish, ba’zida shundayligicha ko‘chirish orqali kelajakda o‘zinikini yaratishga bo‘lgan xoxish uyg‘otganining o‘ziyoq ushbu teatrning bunyodkorlik kuchidan darak berdi. Milliy teatr endigina shakllanayotgan bir davrda uning yaxlitligi uchun shart-sharoitlar mavjud emas edi. Yot g’oya va qarashlar, mutaassib kimsalarning nafaqat bu shakldagi, balki an’anaviy tusdagi teatrga ham tamoman qarshi ekanliklari mavjud to‘siqlardan biri edi. Ammo bularga qaramasdan, o‘zbek teatri shakllandi. Milliy teatrning yuzaga kelgani esa buyuk tarixiy voqeaga aylandi.

Bu vaqt mobaynida teatrda ko‘p asarlar sahnalashtirildi, malakali aktyorlar yetishib chiqdi. Yevropa teatrlari andozasidan namuna olib faoliyat boshlagan Turon va boshq a truppalar, sahnada milliy pyesalar bilan barobar jahon dramaturgiyasidan millatning turmush tarzi va odatlariga xamoxang, shuningdek, badiiy qiymat jihatidan ibrat olishga arzigulik asarlarni o‘z repertuarlariga kiritdilar. Markaziy Osiyo mamlakatlarida teatr san’atining takomili o‘zbek teatrining yanada rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. "Padarkush", "To’y", "Baxtsiz kuyov", "Juvonmarg", "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari", "Advakatlik osonmi?", "Abulfayzxon", "Farxod va Shirin", "Xalima" kabi o‘zbek dramalari hamda "Makr va muxabbat", "Qaroqchilar", "Revizor", "Malikai Turandot", "Hamlet", "Otello" kabi jahon durdonalari sahnalashtirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. O’zbekteatr. “O’zbekiston teatr san’ati: tarix, taraqqiyot va istiqbol”. – T.: G’.G’ulom. 2014 y.
2. J. Mahmudov, Hamida Mahmudova. “Rejissura asoslari” O‘. M. Ye davlat ilmiy nashriyoti 2008 y.
3. Muhtarov. Teatr i yego aktyori. – T.: Fan. 1989 y.
4. Toshpo‘lat Tursunov. XX asr O‘zbek teatr tarixi. Toshkent. 2010 y.
5. D. Qodirova. XX asr o’zbek teatr tarixi ssenografiyasi. Toshkent. 2009 y.
6. B. Irzayev. O’zbek musiqa madaniyati tarixi sahifalaridan. Toshkent. 2017 y
7. M. Umarov, T. Yuldashev. Rejissorlik va aktyorlik san’ati asoslari. Toshkent. 2016 y.
8. Tomoshabin. Turkiston tabibi. “Ulug’ Turkiston”. 1918-yil 11-may.
9. Tomoshachi. Xalqni ibratlantiruvchi yoki oqma yig’uvchi? “Ishtirokiyun”, 1919-yil 2-aprel.
10. Ko’zlukli. Andalusning so’ngi kunlari. “Ishtirokiyun”, 1919-yil 19-avgust.
11. Tomoshabin. Ikki soat vaqt orom etuvchi. “Ishtirokiyun”, 1919-yil 22-mart.

A. Qodiriy. Bizda teatr ishining borishi. “Ishtirokiyun”, 1919-yil 14-dekabr.

12. Jo’ra Mahmudov. XX asr rejissurasi. Toshkent. 2015 y.
13. Vstrechi c Meyerxoldom. Moskva. 1967 y.
14. Nemerovich-Danchenko V.I. “O tvorchestve aktyora”. M., “Iskusstvo” 1984 y.
15. V. E. Merxold. Moskva. 1968 y.

K.S.Stanislavskiy. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. T. Ho‘jayev tarjimasi. Toshkent. 1965 y.